UO‘K: 821.512.133:82-14

CHO‘LPON VA TATAR-BOSHQIRD MA’RIFATPARVARLARINING HAMKORLIK SAMARALARI

Sh.H. Hojiyeva

Maqolada Abdulhamid Cho‘lponning tatar va boshqird ma’rifatparvarlari bilan o‘zaro hamkorligi masalalari o‘rganilgan. Ular ijodiy an’analarining Cho‘lpon estetik tafakkuri takomiliga ta’siri tadqiq qilingan. Cho‘lponning Gaspirali va Zaki Validiy bilan munosabatlari, yozishmalari, Ismoilbek Gaspirali, Mullanur Vohidov va Abdulla Alaviy vafotiga yozgan marsiyalari haqida fikr yuritilgan. Abdulla To‘qay va Cho‘lpon she’rlari g‘oyaviy-badiiy jihatdan qiyosiy tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar*: jadidchilik, yangi she’riyat, mustabid tuzum, marsiya, poetik talqin.*

В статье изучены вопросы взаимного сотрудничества Абдулхамида Чулпона с татарскими и башкирскими просветителями. Исследовано влияние их творческих традиций на развитие эстетического мышления Чулпона. Рассмотрены отношения и переписка Чулпона с Гаспирали и Заки Валиди, его эпитафии на смерть Исмаилбека Гаспирали, Муллануры Вахидова, Абдуллы Алайи. Проведён сравнительный анализ стихов Абдуллы Тукая и Чулпона в идейном и художественном аспектах.

Ключевые слова: *джадидизм, новая поэзия, авторитарный режим, эпитафия, поэтическая интерпретация.*

Kirish

Cho‘lpon Turkiston chorizm mustamlakasi iskanjasida bo‘lgan murakkab davrda dunyoga keldi. Dunyo bo‘ylab esayotgan ozodlik shamoli faqat mustamlaka o‘lkalarda emas, mustamlakachi yurtlar, jumladan, chor Rossiyasining o‘zida ham katta to‘ntarishlar sodir etdi. Qolaversa, birinchi jahon urushi yetkazgan aziyatlar Turkistonda ham xalq hayotining bir necha barobar og‘irlashuviga sabab bo‘ldi. Bu urushdan so‘ng siyosiy o‘zgarishlar, tarixiy voqealar almashinuvi shu qadar tezlashdiki, natijada millatning asl farzandlari – ziyolilari qatag‘on girdobiga tushdi. Xususan, Turkistonda muxtoriyat o‘rnatilishi va uning qirg‘in bilan tugatilishi, sho‘ro tartibining zo‘ravonlik asosida o‘rnatilishi, fuqarolar urushi, qatag‘onlar – bular sodir bo‘lgan voqealarning asosiylari, xolos. Ikkinchi tomonda inqiroz, qoloqlik va jaholat botqog‘ida o‘zini-da yemirayotgan millat boshiga tushgan kulfatning og‘ir yuki. Ana shu voqealar “tug‘ma shoir” – tug‘ma idrok va iste’dod egasining beg‘ubor yoshlik ayyomini to‘zonlar bilan to‘ldirgani shubhasiz. Shuning uchun ham unda olamga, atrof-muhitga va tarixiy vaziyatni o‘zgartirishga qodir kuchlarga munosabat juda erta shakllandi.

Material va metodlar

Maqola uchun Abdulhamid Cho‘lpon “Tanlangan asarlar”i birinchi va to‘rtinchi jildlaridagi tatar va boshqird ma’rifatparvarlariga bag‘ishlangan she’rlari, marsiyalari va maqolalari, Ismoilbek Gaspiralining “Hayot va mamot masalasi”, Ahmad Zaki Validiyning “Xotiralar: Turkistonda mustaqillik va ozodlik kurashlari tarixi” kitoblari hamda Abdulla To‘qayning “Tanlangan asarlar”i asosiy material bo‘lib xizmat qildi. Muammoni tahlil etishda tarixiy-qiyosiy va qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanildi.

Natijalar va ularning tahlili

Jadidchilik – jamiyat hayotining barcha jabhalarini birday qamrab olgan, yangi adabiyotning shakllanishi va rivojini ta’min etgan siyosiy-ijtimoiy, adabiy-ma’rifiy harakat ekani ayon. Bu harakatning yana bir ahamiyatli jihati, millat ziyolilarini Vatan va millat manfaatlari yo‘lida birlashtirganidir. Yangi o‘zbek she’riyatining asoschilaridan hisoblangan Abdulhamid Cho‘lpon ham, boshqa jadidlar ham Turkiston

jadidchilik harakatining boshchisi Ismoilbek Gaspiralini o‘zlariga ustoz, yo‘lboshchi sifatida e’tirof etgan edi. Millat ziyolilarini “Tilda, fikrda, ishda birlik” g‘oyasi atrofida birlashtirishda bu ulug‘ mutafakkirning xizmatlari beqiyos. Yurt ozodligi uchun kurashish, millatning ma’rifatini yuksaltirish, adabiyot, teatr va maorifni shu yo‘lga safarbar etish Ismoilbek Gaspirali uchun hayotiy a’mol bo‘lgani rost.

Cho‘lpon “uchinchi muallim” Ismoil Gaspirinskiy (B.Qosimov ta’rifi) nazariga tushdi. “U (Gaspirinskiy. – Sh.X) barcha turkiy xalqlarni ilm-ma’rifatda, haq-huquqda dunyoning taraqqiy qilgan millatlari bilan teng, baqamti ko‘rmoqni orzu qildi. Butun aqli-vujudini mana shu muqaddas ishga – xalqning ravnaqi va muhofazasi yo‘liga sarf etdi. Bu shunchaki mutaassibona bir orzu emas, zamonasining baland-pastidan xabardor, tarix va taqdirni teran anglagan, Sharqni ham, G‘arbni ham bab-baravar bilgan va bab-baravar ko‘rgan bir kishining aniq va rejali xatti-harakati edi” [1. Б. 4].

Cho‘lponning “Ma’rifatparvar bobomiz Ismoil Gaspirinskiy hazratlari haqinda ta’ziyanomamiz” nomli marsiyasida Turkiston jadidlari otasining xotirasi yod etilgan. Turk dunyosini yagona “Tilda, fikrda, ishda birlik” g‘oyasi atrofiga birlashtirish, jahondagi taraqqiy etgan xalqlar maqomiga yetkazishdek ezgu maslakni mahkam tutgan buyuk mutafakkirni o‘zbek jadidlarining barchasi qatorida Cho‘lpon ham hurmat qilgan, e’zozlagan. Yosh shoir 1913-yili “Tarjimon” tahririyatiga xat yozgan. Ismoilbek bu yorqin iste’dod egasining maktubini va unga o‘z javobini gazetada e’lon qilgan (“Tarjimon”, 1913-yil 27-noyabr, 251-son). Muharrirning: “bizdan daha go‘zal so‘yladigi” degan e’tirofi Cho‘lpon iqtidorining munosib e’tirofi edi. Shundan keyin ular o‘rtasida yaqin munosabat o‘rnatilgan. Gaspirali yosh maslakdoshiga o‘gitlarini bitadi. Uning: *“Adabiyot o‘ta yonmaz, suva botmaz. Lokin yondironlari yondirir, botironlari botirir; suva dagil, cho‘mira, balchiqa botirir!”* [2] – kabi fikrlari Cho‘lpon uchun hayot va ijod maslagini belgilashda beqiyos yo‘riq vazifasini o‘tadi. Gaspirali faoliyatiga baho berganda, Mahmudxo‘ja Behbudiyning:*“Rusiyadagi butun turk-tatar xalqlarini juda oz tarixiy muddatda xayr-xo‘shlik yo‘li bilan yaxlit bir milliy oilaga birlashtirmoqqa noil bo‘lgan”* [3. Б. 162] deya yuksak baho berishi sababi ham shunda. Buyuk ustozidan ayriliq Cho‘lpon ko‘nglida chuqur anduh paydo qildi. Ulug‘ mutafakkirning so‘nmas yodiga adadsiz hurmatini shoir mana bunday ifoda etgan:

Muttakoi ahli islom erdingiz,
Millatimiz yo‘lida jon erdingiz.
Ey bizi uyg‘otguchi ustodimiz,
Iftixori ravnaqi islomimiz [4. B. 16].

Darhaqiqat, Cho‘lpon ustozini “muttakoi ahli islom” deb bilar edi. Uni yana: “bizi uyg‘otg‘uchi ustod” deb ta’riflaydi. She’rning davomida “iftixori ravnaqi islom” sifatida vasf etadi. Yuksak pafos bilan buyuk millatparvarning “eskilarni tor-mor qilgan” islohotchi ekanini aytadi. Uning yangi maktab g‘oyasini shiddat bilan turkiy dunyoga yoygani, maorif tizimini zamon talablari darajasiga ko‘targani, milliy matbuot shakllanishi va taraqqiysi ham uning nomi bilan bog‘liq ekani, bor bilim va quvvatini turkiy xalqlar birligi va taraqqiysi yo‘liga bag‘ishlagani to‘g‘risida yozadi. Biroq umr bebaqo. O‘lim Cho‘lpon va butun Turkiston jadidlarini ulug‘ ustozidan ayirdi:

Eskilarni qildingizkim tor-mor,
Joyingiz jannatda bo‘lsun barqaror.
Oltmish beshda siza yetti ajal,
Bu ajal no‘sh yetkazubdur bemahal [4. B. 16].

Marsiya turkiy she’riyatning faol janrlaridan bo‘lgan masnaviyda yozilgan. She’r baytlari teran mazmun va yuksak badiiyat uyg‘unligida bitilgan. Cho‘lpon “Millat(n)ing porloq charog‘i” sanalgan ulug‘ ustoziga ehtiromini “biz jujuqlarni bobosi” so‘zlari orqali ham bildiradi. Marsiya ayriliq iztirobini aks ettirishi barobarida, ustozga bo‘lgan cheksiz hurmat tuyg‘usi ifodalangani jihatidan ham qimmatlidir:

Millat(n)ing porloq charog‘i o‘chti, oh,
Biz jujuqlarni bobosi ko‘chti, oh.
Ey Hamidiy, qil duoni doimo,
Vasfinga ojiz erurmiz ohu oh [4. B. 16].

Umuman, mazkur she’r chuqur mazmun va hazin ritmni uyg‘unlashtirgani, shoir lirik kechinmalarini yuksak badiiyat bilan ifodalagani kabi fazilatlari bilan marsiya janrining nodir namunasidir.

Cho‘lponning “Adabiyot nadir?” maqolasi “Sadoi Turkiston” gazetasida 1914-yil 4-iyun kuni e’lon qilingan. “Adabiyot nadir?” – Cho‘lponning matbuot yuzini ko‘rgan ilk asarlaridan biridir. Bu maqolani yozganida u 16 yoshda bo‘lgan. Maqola shaklan juda ixcham bo‘lsa ham, mazmunan juda teran. Maqola muhim masalaga qaratilgan, zotan, adabiyot yaratilgandan buyon uning vazifasi, maqsadi nima ekanligi haqida bahs-munozaralar bo‘lib kelgan. Munaqqid Ozod Sharafiddinov shunday yozadi: “Cho‘lpon o‘z izlanishlarida yolg‘iz emas edi... Xuddi shu davrda bun-

day izlanish faqat turkistonlik ziyolilar o‘rtasidagina sodir bo‘lgan emas. Xuddi shu yillarda qo‘shni Qozog‘istonda ham, Ozarbayjon yoxud tatarlar yurtlarida ham adabiyotning mohiyatini izlash, uning jamiyat hayotidagi, millat ravnaqidagi ahamiyatini aniqlash harakati ancha avj olgan edi. Natijada “adabiyot nadur?” degan mangu savolga turli mintaqalarda bir-biriga yaqin javoblar paydo bo‘la boshlagan edi, Ozarbayjon adiblari Jalil Mamadqulizoda yoxud Abdurahim Haqverdiyevlarning, tatar yozuvchilari Abdulla To‘qay yoxud Olimjon Ibrohimovlarning XX asr boshlarida chop etilgan adabiyot haqidagi maqolalari fikrimizning dalili bo‘la oladi” [1. B. 5–7].

Mazkur maqolada atoqli qozoq ma’rifatparvari M.Seralinning mulohazalari ham keltirilgan. “Ayqap” jurnali muharriri bo‘lgan bu ma’rifatparvar mana bunday fikrlarni bildiradi “Til va adabiyot xalqning qalbi va ruhidir. ...adabiyotsiz xalq zabonsiz boladay gap. Bunday bola boshqalarga o‘zining dard-u quvonchlarini gapirib berolmaydi. Xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan eng kuchli vosita til va adabiyotdir. O‘z adabiyotining haqiqiy qadr-qimmatini bilgan xalqlarning farzandlarigina o‘z tilini chinakam ardoqlay oladi. Qozoq xalqining o‘z tili va o‘z adabiyoti bor. ...bizning burchimiz unutilib yotgan ulkan xazinalarni yuzaga olib chiqish va hammaning mulkiga aylantirishdir” [5. B. 147].

“Adabiyot nadir?” savoliga Cho‘lponning javobi esa quyidagicha: “Hech to‘xtamasdan harakat qilub turg‘on vujudimizga, tanimizga suv-havo ne qadar zarur bo‘lsa, maishat yo‘lida har xil qora kirlar ila kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa – millat yashar. Adabiyoti o‘lmag‘on va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishdirmag‘on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo‘lur. Muni inkor qilib bo‘lmas. Inkor qilg‘on millat o‘zini inqirozda ekanun bildirur” [5. B. 4].

Garchi yashash manzili bir-biridan anchayin uzoq bo‘lsa ham, ikki ma’rifatparvarning adabiyot va uning millat ma’rifatini yuksaltirish bilan bog‘liq vazifasiga doir qarashlari uyg‘un ekani maslakdoshlik samarasidir. Buning sababi, birinchidan, XX asr boshlarida Turkiston, Qozog‘iston va boshqa mustamlaka davlatlarda ham milliy uyg‘onish shabadalari esa boshlagan edi. Dunyoda kechayotgan voqealar mohiyatidan yaxshi xabardor, fikri teran, taraqqiyparvar jadidlar bu uyg‘onishni ta’minlagan asosiy kuch bo‘ldi. Tarixiy vaziyat bir-biriga mos bo‘lgani sababli fikr va g‘oyalarda ham yaqinlik kuzatildi. Ikkinchidan, Cho‘lpon “Adabiyot nadir?” maqolasidagi adabiyotga doir teran ta’riflari orqali tatar, ozarbayjon, qozoq ijodkorlarini ilhomlantirdi, bu mavzudagi qarashlarni boshqa turkiy xalqlarga yetkazish uchun uchun zamin hozirladi.

Cho‘lpon taraqqiyparvar sifatida boshqa ziyolilar, ijodkorlar ijodiga befarq bo‘lmagan. U turkiy davlatlar ittifoqligini istaydi. Diniy bilimlar allomasi, atoqli sharqshunos, nodir manbalar bilimdoni, turk dunyosining benazir tarixchisi Ahmad Zaki Validiyni ham chuqur hurmat qiladi. Uning Turkistonga 1913–1914-yillardagi safari, o‘lkaning markaziy shaharlarida bo‘lishi, qo‘lyozmalar ustida olib borgan ilmiy izlanishlari, “Devoni Mashrab”, “Qutadg‘u bilig”, “Tarixi Roqimiy” singari adabiyot va tarixga doir nodir asarlarni o‘rganish borasidagi fidoyiligi Cho‘lpon qalbida o‘chmas iz qoldirgani ayon. Cho‘lpon uning ilmiy-ijodiy ishlari bilan batafsil tanishadi, o‘zi uchun xulosalar chiqaradi.

Bu ulug‘ alloma asarlarini mutolaa qilgan yosh Cho‘lpon unga maktub yozib, ona shahri Andijonga tashrif buyurishini iltimos qiladi. Buyuk mutafakkir Nazir To‘raqulov hamrohligida Cho‘lponning ota uyiga keladi [6. B. 34–37]. Bu uchrashuv ikki ulug‘ ijodkorning turkiy xalqlar ma’rifatini yuksaltirish va taraqqiy ettirish yo‘lida maslakdosh bo‘lishiga, milliy ozodlik kurashi yo‘lida birlashuviga asos bo‘lgan edi. Ikkala ma’rifatparvar maqolalarida g‘oyalar mushtarakligi kuzatiladi. Yangi davr farzandlari sifatida ularning hurlik va ma’rifat, erk va taraqqiyot borasidagi fikrlari bir chiziqda kesishadi.

Tatar-boshqird ma’rifatparvari, siyosiy arbob Zaki Validiy va Turkiston jadidlari o‘rtasida mustahkam aloqa bo‘lgan. Masalan, “Milliy ruhoniy boylig‘imiz” maqolasi har bir millat dunyoda yashab qolish uchun ijtimoiy, siyosiy hamda ma’naviy shartlarni bajarishi lozimligi xususida bahs etilgani bilan e’tirofga loyiqdir. Jumladan, “*O‘z millatini saqlay olmag‘on o‘z qavmini qiziqishlarini, o‘z an’analarini maydong‘a qo‘ya olmaydur. Chet qavmlarning madaniyati bilan yashag‘on qavm, bu raqobatni qila olmag‘oni uchun insoniyatning isloh va taraqqiysig‘a xizmat qila olmaydur*” [7. Б. 22], deb yozar ekan, bunday millatlar salohiyatli va yuksak intellektual tarzda taraqqiy etgan o‘zga millatlar nazdida e’tiborga sazovor bo‘la olmasligini ta’kidlaydi. Darhaqiqat, har bir xalqda millat, milliyat, madaniyat, ma’rifat g‘oyalari yuqori bo‘lsagina jahonda o‘z o‘rnini topadi. Bunday fikrlar Cho‘lponning “O‘t-arava to‘g‘risida” nomli maqolasida ham keltiriladi. Ma’rifat taratuvchi gazeta va jurnallarning mablag‘ yetishmasligi sabab nashr etilmayotgani ijodkorni qattiq tashvishga soladi. Bu haqida shunday deydi: *“Bilim o‘chog‘i” bilan “Inqilob” majmualari ham mablag‘ uchun to‘xtab qolg‘on ekanlar. Lokin, men munga ishonib yetolmayman. Totoriston Sho‘rolar jumhuriyatida bir-ikkita majmua to‘xtovsiz chiqib turar ekan. Aqlim olmaydur: Totoris-*

ton Sho‘rolar jumhuriyati bizning Turkiston Sho‘rolar jumhuriyatidan boymi ekan? U jumhuriyatning paxtasi yo‘q edi-ku? Bizda, axir, – paxta bor, radiy javhari bor, darmona (santonin) koni bor, toshko‘mir, qora yog‘... yana nima balolar bor. Shularning hammasi ijtimoi› asosdagi maslahatlik jumhuriyatimizning boyligi-ku! Yo shundoq emasmi?” [1. B. 147]

Zaki Validiy maqolasida o‘z madaniyati bo‘lmagan qavm insoniyat taraqqiyoti uchun xizmat qila olmasligi, uning qiziqish va an’analari ham bo‘lmasligi haqida keskin fikrlarni bildirsa, Cho‘lpon madaniyat, ma’rifat, an’analar rivoji uchun minbar vazifasini o‘tovchi matbuot sahifalarining to‘xtab qolayotgani haqida kuyunib gapiradi. Har ikki ijodkor millat erki va rivoji dardida. Uning taraqqiyoti uchun qaysi yo‘l yaxshi? Xalq qanday yo‘l tutsa, bu murakkab sinovlardan talafotsiz o‘tadi? Bu kabi savollarga ular shaklan farqli, mohiyatan mushtarak g‘oyalar bilan javob izlashadi.

1917-yil Fevral inqilobining yuz berishi taraqqiyparvar jadidchilar tafakkurini o‘zgartirdi. Ular, ayniqsa, Cho‘lpon hurriyat yo‘lidagi kurashda amaliy harakatlarni kuchaytirish davri kelganini his etdi. Navqiron Cho‘lpon ham Turkiston muxtoriyati olinishi jarayonida jonbozlik ko‘rsatdi. Muxtoriyatning ahamiyati vasf etilgan “Ozod turk bayrami” she’rini yozgani va bu she’r milliy davlatchiligimizning ilk madhiyasi sifatida e’tirof qilingani buning isbotidir. Cho‘lpon hayotida ijtimoiy-siyosiy faollik davri boshlangan edi. Zaki Validiy hamrohligida Orenburg shahriga borib, Boshqirdiston muxtoriyatini tashkil qilishda qatnashgani ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. 1937-yilda sho‘ro hukumati Cho‘lponni “millatchi” va “aksilinqilobchi” deb ayblashda uning Boshqirdiston muxtoriyat hukumati tashkil etilishida ishtirok etib, yordam berganligini asos qilib keltiradi.

Cho‘lpon turkiy xalqlar ziyolilari bilan yaqindan aloqa o‘rnatdi. Uning “Sharq nuri” nomli marsiyasi zamondosh tatar ijodkorlaridan Mullanur Vohidov (1885–1918) vafotiga bag‘ishlab yozilgan edi. Professor Begali Qosimov fikricha: “Zaki Validiy uning 1917–1918-yillarda siyosiy ishlar bilan ham shug‘ullanganini, jumladan, Orenburgda Boshqirdiston hukumati raisining kotibi lavozimida ishlaganini ma’lum qiladi. Ikkinchi bir o‘rinda *“Turkiston hukumat a’zolaridan Ubaydulla Xo‘ja va safdoshlari Mirmuhsin, shoir Abdulhamid Sulaymon (Cho‘lpon), Buxoroli Abdulhamid Orif o‘g‘li shu paytlarda (1918-yil yozi ko‘zda tutiladi) Boshqirdistonda ishladilar”, deb yozadi. Bu ma’lumotni Boshqirdiston hukumati rahbarining o‘zi keltirayotgan ekan, u har qanday shubhadan xolidir*” [8. B. 430]. Cho‘lponning atoqli tatar istiqlolchisi Mullanur Vohidov vafotiga bag‘ishlangan marsiyasi o‘sha vaqtlarda yozilgan edi.

Mazkur she’rda butun kurrayi arzda qiyosi yo‘q yuksak tamaddunga zamin yaratgan betimsol Sharqning keyingi davrlarda g‘animlar istibdodi iskanjasiga tushgani chuqur anduh bilan ifodalangan:

Bir zamonlar yer yuzinda o‘z boshli
Ulug‘, shonli madaniyat tug‘dirgan.
U go‘zal Sharq, shirin tuproq so‘ng zamon
Bo‘ldi chetlar panjasida ko‘zyoshli... [4. B. 27].

Barmoqda bitilgan marsiya 11 bo‘g‘inli (4-4-3 turoqli) shaklda yozilgan. Ma’lumki, turkiy she’riyatda turoq she’rning mazmunidan kelib chiqib tanlanadi. Bu shakl shoir qalbidagi o‘kinch va iztirob ifodasi uchun mos edi. Cho‘lpon maslakdoshi Mullanur Vohidovning g‘animlarini Sharq ozodligining yovlari deb biladi. Shoir do‘stining g‘animlariga bo‘lgan murosasiz munosabatini mana bunday talqin etadi:

Pok siynangga o‘q otuvchi dushmanlar,
O‘ylamaki, bir o‘zingning dushmaning;
U dushmanlar butun Sharqning dushmani,
Ko‘pdan ichib kelgan qonlarin uning. [4. B. 27].

Bu tatar ma’rifatparvaridan ayriliq yosh Cho‘lpon ko‘ngliga chuqur iztirob soldi. She’rning har bir misrasidan maslakdosh do‘stiga bo‘lgan samimiy mehri va undan ayrilish anduhi yaqqol namoyon bo‘ladi. Cho‘lpon bu ulug‘ insonning butun ruhiyati bilan sharqsuyar bo‘lgani haqida yonib yozdi. Shoir talqiniga ko‘ra, o‘z navbatida, Sharq ham bu fidoyi farzandini suyadi. Mullanur Vohidovning Sharq bilan bir jon-u bir tan ekanini mana bunday ifoda etadi:

Kun ham Sharqdan, oy ham Sharqdan chiqadir,
Biroq bir sen G‘arbda chiqding va botding;
Shuning uchun menim sharqlik ruhimda
Ajib mudhish, qo‘rqunch tuyg‘u uyg‘otding.

Mening sharqlik ko‘zim sening ruhingni
Sharqning har bir burchagida ko‘radir,
To‘g‘ri, sening u sharqsuyar ruhlaring
Al-Hamroda, saroylarda yuradir.

Shuning uchun suyar seni butun Sharq,
Sen Sharqmisan, Sharq senmidir, bilofarq
[4. B. 29].

Qardosh jadidlar vafoti munosabati bilan Cho‘lpon yana bir qancha marsiyalar yozgan. Shulardan biri Abdulla Alaviy edi. Bu ma’rifatparvar o‘zbek mumtoz

adabiyotini chuqur va atroflicha bilgan. Milliy adabiyotimizga doir ilmiy maqolalari nazariy bilimi nechog‘liq puxta ekanidan dalolat beradi. U o‘z she’riyati bilan turkiy dunyo ijodkorlari orasida munosib e’tirofga sazovor bo‘ladi. Shoir uning “tilga ipakdek ko‘ylak kiydirgan”ini, she’rlarida ona tilimiz imkoniyatlaridan san’atkorona foydalanganini alohida ta’kidlaydi. Bu ijodkorning vafoti turkiy til va adabiyot uchun ulkan yo‘qotish bo‘lganini dardli satrlarda ifodalaydi:

Ey ulviy yo‘ldoshim, yumshoq tilingni
O‘limning omonsiz panjasi oldi.
Men sendan ayrildim, shu ondan boshlab
Tilimda so‘z degan narsa yo‘qoldi...

Dedim-ku: tilim yo‘q! Bu so‘zsiz tilim
Tevasi yo‘qolgan badaviy bo‘ldi.
Mening tilim emas, butun bir elning
Muloyim shevasi yerga ko‘mildi [4. B. 278].

Akademik Naim Karimovning yozishicha, Abdulla Alaviy madrasada ta’lim olgan, yoshlik kezlaridan arab, fors va turk tillarini mukammal o‘rgangan. Leningrad jonli Sharq tillari institutida 1922–1923-yillarda o‘zbek tilidan dars bergan. V.V.Bartold, E.E.Bertels, K.N.Yudaxin kabi atoqli olimlar bilan tanishadi [9. B. 26]. Cho‘lpon uni o‘zining shogirdi deb bilgan. Abdulla Alaviy she’rlarida, ustozidan farqli ravishda, nekbinlik tuyg‘usi, Cho‘lpon nazmiga xos milliy ruh ifodalangani kuzatiladi.

Sen tilga ipakdek ko‘ylak kiygizding,
Yo‘q, do‘stim, u ko‘ylak bitmasdan qoldi.
Men sendan ayrildim, shu ondan boshlab
Ayriliq tilimga kalolat soldi [4. B. 278].

Abdulla Alaviyning onasi Habibaxonim ham o‘g‘lining bevaqt o‘limidan g‘am girdobida qolib, marsiya yozgan. G‘azal janrida yozilgan ushbu marsiyada onaizor qalbidagi chuqur hasrat va anduh ifodalangan. Cho‘lponning mazkur g‘azalga bitgan muxammasida g‘addor va berahm falakning ishi faqat jabr-u jafo ekani, o‘lim har bir bandaning boshida borligi mana bunday ifoda etilgan:

Bir kun so‘lishi bo‘lmasa, hech bir gul ochilmas,
Har yonda o‘lim changali bordurki, qochilmas,
Hech kimga hayot pattasi manguga sotilmas,
Ko‘ngil tilagan narsa bu dunyoda topilmas,
G‘addora falakning tugamas jabru jafosi
[4. B. 281].

Marsiya mutolaasi Abdulla Alaviydan ayriliq Cho‘lpon yuragida og‘ir anduh izini qoldirganidan dalolat beradi. Cho‘lpon shogirdini o‘z nazdida oy va kunga tashbeh etadi. Shoirning chuqur iztirobga yo‘g‘rilgan dard-u nolalari dilbandidan ayrilgan onaizor Habibaxonim qalbidan otilib chiqqan hasratlarga har jihatdan uyg‘undir:

Tufrog‘i aning surma-yu, qabri vatanimdir,
O‘lsam-da qovushsam – menga shul birgina tadbir,
Cho‘lpon qoshida oy edi ham kun edi ul bir,
Sho‘rlik ona har qancha kuyib yig‘lasa arzir,
Ketti bu jahondin jahon ahlining sarosi [4. B. 281].

XX asr boshlarida ilg‘or tatar adabiyotining y*etakchi vakillaridan biri Abdulla To‘qay o‘zbek adabiyoti bilan mustahkam aloqada bo‘lgan. Bolsheviklar imperiyasi hududidagi barcha mazlum xalqlar hayoti Abdulla To‘qay ijodining bosh mavzusidir.*

Mustamlaka balosidan qutulishni istagan mazlum xalqlar birdamlikni, ahillikni, siyosiy birlikni istadilar. Bu borada ham To‘qayning xizmatlari katta edi. Ammo bevaqt o‘lim uni barcha xayrli sihlariga nuqta qo‘ydi. “Sadoyi Turkiston” gazetasi, qozoq tilidagi “Ayqap” jurnali To‘qay vafotining bir yilligiga bag‘ishlab bir qator she’rlar va maqolalar e’lon qildi. Jumladan, Tavalloning “Marhum Abdulla afandi To‘qayevning she’riga tazmin” (1914), Muhammadjon Seralinning “Abdulla To‘qay haqida” nomli she’rlarini nashr qildi. To‘qayning “Bizni o‘rinsiz yomonlaydilar”, “Millatimga”, “Yurtimga” kabi she’rlariga Tavallo “Bor so‘zlar”, Lutfulla Olimiy “Millatim” (1914), Abdulla Avloniy “Sadoqat bizda yo‘qdur”, “Jigar so‘z” (1916), S.To‘rag‘irov “Tuvg‘an elima” kabi tazmin she’rlar bitdilar. Xususan, o‘zbek shoiri Tavallo ulug‘ tatar shoiriga bo‘lgan otashin mehr-muhabbati va sadoqat tuyg‘ularini shunday samimiy ifodalagan edi:

Jumla fikrim kecha-kunduz Sizga oid, millatim,
Sen salomat, men farog‘at, illatingdir illatim,
Marhum Abdulla To‘qaydek yosh chog‘imda ketmasam,
Ojizona shoiring bo‘lmoqqa bordir niyatim,
Endi yil to‘ldi vafotiga To‘qayni deb bugun,
Bog‘ladim she’rina tazmin, yodlanibdur u yetim”
[10. B. 4].

Bu davrda Cho‘lpon, Elbek, Mag‘jon Jumaboyev va boshqalar To‘qay she’rlaridagi milliy istiqlol g‘oyasiga e’tibor qaratdilar, bunday she’rlardan ta’sirlandilar. To‘qayning “O‘z-o‘zimga”, “Kuz”, “Millata”, “Yoshlar” singari otashin millatparvarlik ruhidagi she’rlari bilan Cho‘lponning “Kuz”, “Yana qor”, “Ko‘klam”, “Haqiqat yo‘li bir o‘tilg‘usi” kabi she’rlari o‘rtasida muayyan g‘oyaviy mushtaraklikni ko‘rish

mumkin. Ayniqsa, Abdulla To‘qayning “Bir tatar shoirining degani” she’ridagi:

O‘ngga, so‘lga og‘may olg‘a men boraman,
Yo‘lda bir sad ko‘rsam tepib ag‘daraman;
Qo‘lda qalam bo‘la turib yosh shoirga,
Ma’lumdirki, qo‘rqish bilan hurkish harom.

Dushmanlarning zo‘ridan biz hech qo‘rqmaymiz,
Botirlikda Ali, Rustamlarga tengmiz.
Shoir umri qayg‘u-hasrat ko‘rsa ko‘rar –
To‘lqinlanmay turolmaydi ulkan dengiz, –
[11. B. 1]

satrlari Cho‘lponning “Ulug‘ yo‘lda” she’ridan olingan quyidagi misralar bilan solishtirilganda g‘oyaviy birlik yaqqol seziladi.

Yo‘limizda cho‘llar, suvlar, dengizlar,
Bosh uchini tanib bo‘lmaslik izlar,
Shu izlarni bosib, dengizlar kechib,
Buyuk amal bilan boramiz bizlar!

Yurakdagi saqlab borgan amallar,
Yo‘llardagi dengizlardan ulug‘roq.
Ezilganlar tilak tilar bu yili,
Burungidan to‘lug‘roq [7. B. 12].

Har ikki she’rda mustamlaka istibdodidan qutulib, istiqlolga erishish uchun yo‘lda uchragan har qanday to‘siqni yengib o‘tishga tayyor lirik qahramon kechinmalari aks etgan.

Abdulla To‘qayning “Tekinxo‘rlar” g‘azalidagi g‘oya Cho‘lponning “Vijdon erki” she’ridagi fikr bilan mushtarakdir:

Tekinxo‘r, oqsuyak zotlar, qorin solgan nasoratlar,
Demas to‘ydim, ochofatlar, ajab hay-hay, ajab hay-hay!
Va har qaysi gubernator, kekirmoq birla ko‘p mag‘rur,
To‘yib bo‘lgach ular bazo‘r, ich-u toshi faqat moy-moy!
Xalq o‘lsa ham parvoyi yo‘q, bo‘lsa basdir qursog‘i to‘q,
Og‘izlari qurdim quduq, nimangki bor: “Day syuda, day-day!” [12. B. 22].

To‘qay – tatar adabiyotida ko‘p yangiliklarni boshlab bergan shoir. U o‘z ijodida podsho tuzumidan, “tekinxo‘r, oqsuyak zotlar, qorin solgan nasoratlar”dan azob ko‘rgan tatar xalqining siyosiy va ijtimoiy qarashlarini, orzu-havaslarini aks ettiradi. “Tekinxo‘rlarga” she’rida jabr-zulmdan qattiq norozilik, ozodlikka benihoya tashnalik, kurashga qat’iy nido ruhi seziladi. Birovlarning kuchidan foydalanib kun ko‘ruvchi tekintamoq kimsalarning basharasini ochib beradi.

To‘qayning rus adabiyotiga qiziqqani, unga muhabbati she’rlaridan va tarjimalaridan anglashiladi. “Bir tatar shoirning degani” she’ridagi:

Pushkin, Lermontovdan o‘rnak olaman,
Asta-sekin yuqorilab men boraman,
Tog‘ boshiga chiqib men qichqiray desam,
Yuksaklikdan yilarman deb men qo‘rqaman
[12. B. 56].

satrlari fikrimizni tasdiqlaydi. Shoir bir g‘azalida shunday yozadi:

Nazirsiz shoir o‘lding, ofarin, Pushkin Aleksandr!
Menimda dard-u shavqim ham sening
dardingla-la yaksondir [12. B. 21].

To‘qayning rus adabiyoti vakillari ijodini astoydil o‘rgangani va ularga havas qilgani *“Hazrati Pushkin va Lermontov bo‘lsa quyosh, Oy kabi nurni ulardan iqtibos etgan bu bosh*” deya ta’kidlagani ham tasdiqlaydi.

A.S.Pushkin, I.A.Krilov, A.V.Koltsov, V.Jukovskiy, M.Lermontov asarlari tatar kitobxonlariga To‘qay tarjimalarida yetib borgan bo‘lsa, M.Gorkiy, A.S.Pushkin, I.A.Krilov, A.A.Blok asarlari o‘zbek kitobxonlariga Cho‘lpon orqali yetib keldi. Bu o‘rinda Cho‘lpon va To‘qayning tarjima sohasida mushtarak jihatlarini kuzatish mumkin.

Cho‘lponning “Vijdon erki” she’ri To‘qayning yuqorida tahlil qilingan “Tekinxo‘rlarga” nomli she’riga o‘xshab ketadi:

Ey tutqunlar, ey ezilgan,
Ey qiynalg‘on yo‘qsul ellar!
Ey umidsiz, ey chizilg‘an
Dor oldig‘a oppoq dillar!
Ey bevalar, bechoralar,
Ey bog‘langan kishanlarga,
Ey erk uchun ovvoralar,
Ko‘p yalinmang siz ularga! [9. B. 55]

Ko‘rib turganimizdek, ikki she’rda ham mustamlakachilarga, gubernatorlarga bo‘lgan nafrat obrazli tasvirlanmoqda. To‘qay she’rida xalqni talayotgan, Cho‘lpon she’rida esa yo‘qsul elni qiynayotgan mutasaddilar tanqid qilinib, kishanlarga bog‘langan “erk uchun ovvoralar” ogohlikka chaqirilmoqda.

“Tekinxo‘rlar” she’rida nafs bandalari tasvirlansa, “Vijdon erki” she’rida sho‘ro siyosati yalovbardorlari dastidan umidsizlik girdobiga tushgan xalq obrazi suvratlangan.

Bu kabi kuzitishlar Cho‘lponning ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi teranligi, asarlarida Vatan va Millat dard-u iztiroblari, orzu-armonlari butun ko‘lami bilan aks etgani, erk va ozodlik g‘oyalari xalqona pafos bilan ifodalangani haqidagi to‘xtamga olib keladi.

Xulosa

Abdulhamid Cho‘lpon tatar va boshqird ma’rifatparvarlari bilan muntazam aloqada bo‘ldi. Ismoilbek Gaspirinskiy, Ahmad Zaki Validiy, Abdulla To‘qay, Abdulla Alaviy qalamiga mansub adabiy va tarixiy asarlar bilan yaqindan tanishdi. Bu ma’rifatparvarlar bilan birgalikda she’rlarida yagona maslak – turkiy dunyo birdamligi hamda Turkiston ozodligi g‘oyasini ohorli va ta’sirli talqin etdi. Ularning va rus shoir-u adiblarining asarlarini chuqur o‘rgandi. Ustozlari vositasida jahon estetik tafakkuri yutuqlaridan bahramand bo‘ldi. Bular barchasi yorqin iste’dod egasi bo‘lgan Cho‘lponni tobladi, uning ijodiy kamoloti uchun asos-zamin vazifasini bajardi.

Tatar-boshqird ma’rifatparvarlari Cho‘lpon va Turkistonning boshqa jadidlari uchun shunchaki ijodiy hamkorlar emas, balki Vatan va Millat mustaqilligi yo‘lidagi qizg‘in kurashda maslakdosh, yelkadosh ham edilar. Shu bois ularning o‘zaro yaqinligi faqat badiiy ijod doirasida qolib ketmadi. Ijtimoiy-siyosiy, e’tiqodiy maslak yo‘lidagi do‘stlik va birodarlik darajasiga yuksaldi. Shuning uchun ham shoir Ismoilbek Gaspirinskiy, Mullanur Vohidov, Abdulla Alaviy singari ma’rifatparvarlar vafotiga marsiyalar bitdi. Bu marsiyalar maslakdoshlari vafotidan qayg‘urish, hamdarlik tuyg‘ulari bilan bir qatorda erk va ozodlik g‘oyalarini ifodalagani bilan ham qimmatlidir.

Adabiyotlar:

1. *Шарафуддинов О*. Адабиёт надир? (Адабий-танқидий мақолалар, Чўлпон ҳақида хотиралар). – Тошкент: Чўлпон, 1994. – 240 б.

2. *Гаспринский И*. Андажондан ўлан савола жавоб. // Таржимон, 1913 йил 27 ноябрь, 351-сон.

3. *Гаспринский И*. Ҳаёт ва мамот масаласи. Танланган асарлар. – / Таржимон, тўпловчи, нашрга тайёрловчи, сўзбоши муаллифи Бегали Қосимов. – Тошкент: Маънавият, 2006. – 31 б.

4. *Чўлпон*. Асарлар. Тўрт жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – 368 б.

5. *Cho‘lpon.* Ko‘klam ruhi. She’rlar. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 176 b.

6. *Иванов С.Н*. Николай Федорович Катанов (1862–1922) (очерк жизни и деятелности). Изд-е 2-е. – Москва: Наука, 1973. – 113 с.

7. *Zaki Validiy*. Milliy ruhoniy boylig‘imiz. // “Yurt” jurnali, 1917. – №1–2. – B. 9–11.

8. *Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С.* Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 296 б.

9. *Каримов Н.* XX аср адабиёти манзаралари. Биринчи китоб. – Тошкент: O‘zbekiston, 2008. – 535 б.

10. *Турдиев Ш.* Абдулла Тўқай ва ўзбек адабиёти // Жаҳон адабиёти, 2011. – № 4. – С. 36–39.

11. *Тўқай А*. Бир татар шоирининг дегани. Шеър. [Интернет манба]. URL: https://www.ziyouz.com/portal (Мурожаат этилган сана: 09.09.2024)

12. *Тўқай* А. Танланган асарлар. / Тўпловчи А.Мухтор. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1961. – 241 б.

14. *Қосимов Б.* Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – 400 б.

15. *Қуронов Д.* Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 80 б.

16. *Қуронов Д*. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 288 б.

EFFECTS OF COOPERATION OF CHULPAN AND TATAR-BASHKIR ENLIGHTENERS

Shahlo Hojiyeva[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 5(81). 84-93.

[1]National University of Uzbekistan, Tashkent, 100174, str. University, 4 (Uzbekistan). E-mail: devonxona@nuu.uz

Key words: jadidism, new poetry, authoritarian regime, lamentation, poetic interpretation.

It is clear that Jadidism is a political-social, literary-educational movement that covers all aspects of society's life and ensures the formation and development of new literature. Another important aspect of this movement is that it united intellectuals in the interests of the Motherland and the nation. Abdulhamid Chulpan, who is considered one of the founders of new Uzbek poetry, and other poets fought for the freedom of Turkestan and the rise of the nation to the level of developed nations in the world. The article examines the issues of mutual cooperation of the founder of new Uzbek poetry, Abdulhamid Chulpan, with Tatar and Bashkir enlighteners. The impact of their creative traditions on the improvement of the aesthetic thinking of Abdulhamid Suleiman's son Chulpan was studied. Chulpan's dirge "Our condolence about our enlightened grandfather Ismail Gaspirinsky" is dedicated to the founder of the movement of the Turkic peoples. "Literature is not flammable, it is not submerged in water. But it burns fires and drowns its mud; it is not water, but it is drowned in mud!" The words of young Chulpan were programmed in defining the path of creativity.

Source scholar and historian Ahmad Zaki Walidy Togan's scientific trip to Turkestan in 1913-1914, his stay in the cities of Fergana, Samarkand, Bukhara, Tashkent and Shahrisabz, collected local handwritten sources, "Devoni Mashrab", "Chulpan's services in researching literary and historical works such as "Kutadgu bilig", "Tarihi Rakimi" do not leave Chulpan indifferent. The young poet gets acquainted with the scientific and creative works of this great scientist in detail, draws conclusions for himself.

The death of Mullanur Vahidov had a strong impact on young Chulpan. A deep feeling of love can be felt from every line of the march dedicated to him. The poet emphasizes that his soul is oriental. This explains why the East loves him. It emphasizes that the concepts of the devotee of enlightenment and the East are closely related.

Chulpan also wrote a dirge for his close friend and student Abdulla Alavi. Abdulla Alavi, as a scholar of classic Uzbek literature and literary theory, wrote deep scientific articles, as well as lyrical poems infused with the spirit of the new era, in the Uzbek poetry of the 20s of the last century.

has a special place. The dirge written on his death is valuable not only for its high artistic quality, but also as an expression of the poet's heart. Beloved child of the Tatar people, brought a new spirit to Tatar literature

the relationship between the poet Abdulla To'kai and Chulpan is also noteworthy. Chulpan's poems "Vijdon erki" and To'kai's "Tekinkhorarga" were compared and their similarities and differences were determined.

References:

1. Sharafuddinov, O. (1994) Adabiyot nadir? (Adabiy-tanqidiy maqolalar, Cho'lpon haqida xotiralar) [Is literature rare? (Literary-critical articles, memoirs about Chulpan)]. Tashkent: Cho'lpon.

2. Gasprinskiy, I. (1913) Andajondan o'lan savola javob [Answer the question and answer from Andajan]. Tarjimon. November 27. Issue 351.

3. Gasprinskiy, I. (2006) Hayot va mamot masalasi [A matter of life and death]. / In: Tanlangan asarlar [Selected works]. Tashkent: Ma'naviyat.

4. Chulpan. (2016) Asarlar [Works]. In 4 volumes. Vol.1. Tashkent: Akademnashr.

5. Chulpan. (2019) *Ko'klam ruhi. She'rlar* [The Spirit of the Cloud. Poems]. Tashkent: Yoshlar nashriyot uyi.

6. Ivanov, S.N. (1973) *Nikolaj Fedorovich Katanov (1862–1922) (ocherk zhizni i deyatelnosti*) [Nikolai Fedorovich Katanov (1862–1922) (essay on life and work)]. Moscow: Nauka.

7. Validiy, Z. (1917) Milliy ruhoniy boylig‘imiz [Our national spiritual wealth]. *Yurt.* No 1-2. Pp. 9-11.

8.Qosimov, B., Yusupov, Sh., Dolimov, U., Rizaev, Sh., Ahmedov, S. (2004) *Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti* [Uzbek literature of the period of national revival]. Tashkent: Ma’naviyat.

9. Karimov, N. (2008) XX asr adabiyoti manzaralari [Landscapes of 20th century literature]. Book 1. Tashkent: O‘zbekiston.

10. Turdiev, Sh. (2011) Abdulla To‘qay va o‘zbek adabiyoti [Abdulla Toqai and Uzbek literature]. Jahon adabiyoti. No 4. Pp. 36-39.

11. To‘qay, A. Bir tatar shoirining degani. She’r [A Tatar poet said. Poem]. [Online]. URL: https://www.ziyouz.com/portal (Date of Access: 09.09.2024)

12. To‘qay, A. (1961) *Tanlangan asarlar* [Selected works]. Tashkent: O‘zadabiynashr.

13. Qosimov, B. (2002) *Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik*. [National awakening: courage, enlightenment, dedication.]. Tashkent: Ma’naviyat.

14. Quronov, D. (1997) *Cho‘lpon hayoti va ijodiy merosi* [Chulpan’s life and creative legacy]. Tashkent: O‘qituvchi.

15. Quronov, D. (2004) *Cho‘lpon nasri poetikasi* [The poetics of Chulpan’s prose]. Tashkent: Shark.

Muallif haqida ma’lumot:

HOJIYEVA Shahlo Xazratovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti. E-mail: sh.hojiyeva@mail.ru